

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**O'zbek filologiyasi fakulteti
O'zbek adabiyoti tarixi kafedrası**

“O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi” fanidan

KURS ISHI

Mavzu: Abdurahmon Jomiy Navoiy nigohida

Bajaruvchi

Mardiyeva Nasiba

2 - kurs 03-guruhi talabasi.

Ilmiy rahbar

o'qit.N.Muhiddinova

Kurs ishi O'zbek adabiyoti tarixi kafedrasining ...-yil ...-
apreldagi ... -son yig'ilishida himoyaga tavsiya etildi. (ro'yxat raqami
№ ...)

Kurs ishiga _____ reyting bali qo'yildi.

Komissiya raisi

prof.D.Salohiy

Komissiya a'zolari:

dots. S.Tohirov

dots. G.Xoliqulova

Samarqand – 2013

Abdurahmon Jomiy Navoiy nigohida

Reja:

I. Kirish. Jomiy va Navoiyning ilk uchrashuvi va bu boradagi qarashlar.

II. Asosiy qisim,

1) Navoiy va Jomiy aloqalari , ijodiy hamkorligi

2) Navoiy badiiy ijodida Jomiy shaxsiyati va faolyati,

a) „Xamsa” dostonlarida,

b) „Nasoim ul- muhabbat” asarida,

c) „Majolis un- nafaos” asarida”

III. “Mahbub ul- qulub” asarida Jomiyning ishq va she’riyatdagi martabasi.

VI. Xulosa.

V. Adabiyotlar ro’yhati.

Ustozlar aziz yurtning eng aziz, eng ulug', eng mo'tabar kishilaridir.

I.A.Karimov.

Biror bir shoirning ijod olamini o'rganar ekanmiz, bevosita bu jarayonni shoir shaxsiy faolyatiga bog'liq bo'lgan tomonlarini ko'rishimiz mumkin. Navoiy ijodiyoti haqida gapirganimizda esa ,albatta, uning ustozlari ijodiyotining ta'sir kuchini e'tirof etish kerak. Alisher Navoiy badiiy olamini bir gulzor deb bilsak, bu gulzordagi gullarning turfa boylar taratishida ustoz shoirlarning o'rni alohida . Buni Navoiy har bir asarlarida ustozlarini alohida e'tirof etganligida ko'rish mumkin. Navoiy Nizomiy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmoh Jomiy , Lutfiylarni o'ziga ustoz, pir deb bilgan va o'z yutuqlarida ularning xizmatlarini takror-takror aytib o'tadi. Navoiyga ana shunday ma'naviy-marifiy ta'sir o'tkaza olgan zamondoshi, ustoz-shoir Abdurahmon Jomiy alohida tilga oladi. Shuningdek, Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiyning o'sha davrdagi munosabatlarini ustoz-shogird aloqalarining eng chiroyli, eng namunali ko'rinishi deyish mumkin. Chunki, Jomiy Navoiyning ustoz, ijodiy hamkori, piri va sirdosh do'sti edi. Navoiy va Jomiy aloqalarini, ijodiy hamkorligini, shaxsiyatini o'rganish har ikkala shoirning adabiyot sohasida yangi ijod qirralarning namoyon bo'lishiga, har ikkala xalqning adabiy me'rosini boyitishga hizmat qiluvchi omillarni yuzaga keltiradi. Navoiy va Jomiy o'rtasidagi aloqalar, munosabatlar to'la- to'kis o'rganib bo'lindi deyish noo'rindir. Jumladan, ularning ilk uchrashuvi va ijodiy faolyatining qachondan boshlanganligi va bu boradagi bazi qarashlar va fikrlar xali to'liq asoslanmagan bo'lib, noaniq, mavhumligicha qolmoqda. Bu qarashlarni Navoiy va Jomiy, ular o'rtasidagi aloqalar to'g'risida bazi olimlarning adabiy fikrlarida ko'rishimiz mumkin. Ustoz-shogird , Navoiy va Jomiy haqida ma'lumot beruvchi dastlabki manba Navoiyning o'z asarlaridir. Bundan tashqari Mirxondning "Ravzat us safo", Xondamirning "Makorim ul-axloq" asarlaridan, XX asr o'zbek adabiyotshunoslaridan, Vohid Abdullayevning "Tanlangan asarlar"(2002 y), Botirxon Valixojayev "O'zbek adabiyotshunosligi tarixi"(T-1993), "Mumtoz siymolar"(2002 y), Oybek "Tanlangan asarlar"(T-1979), Izzat sulton "Navoiyning

qalb daftari”(T-1969), Nazar Rajabov “Uztozu shogird “xamsa”ijodkorlari”(2001 y), Amonullo Valixonov “G’azal nafosati”(1985 y) asarlaridan va yana boshqa, ko’plab ilmiy asarlarda bu boradagi qisqacha qayd etilgan malumotlar uchraydi.

I. Navoiy va Jomiyning dastlabki uchrashuvi haqida.

Navoiy va Jomiyning dastlabki uchrashuvi va tanishuvi borasida ma’lumotlar aniq, mukammal ravishda ma’lum emas. Bu ikki buyuk qalbning qachon va qayerda tutashganligi hech bir asarda aniq malumot asosida aytib o’tilmagan bo’lib, bu borada Navoiyning o’zi ham o’z asarlarida aniq e’tirof etgan o’rinlar ko’zga tashlanmaydi. Navoiy “Xamsatul mutahayyirin”asarida Jomiy bilan bo’lgan uchrashuvlarini yozadi-yu , o’sha yillarda necha yoshda bo’lgani, tanishuvlariga sabab bo’lgan asoslarni keltirib o’tmaydi. “Shohruh sulton zamoni avositidin sulton Abusaid zamoning avoilig’acha shahrda sokin erdilar.Andin so’ngra xiyobon boshida hazrati pir mahdum Saduddin Koshg’ariy mozori boshida iqomat rasmin zohir qildilar va shahrning jame ulamo va akobiri-yu ashrofi alarg’a mulozamat va taraddud bunyod qildilar , to ul podshohi zamonning (Husayn Bayqaroning) arkoni davlat va ayon hazrati va oliyshon umaro va rafe makon sudur va vuzaro, balki asr podshohi alarning ostonigakim, maqsud qiblasi va murod Kabasi erdi-tashrif keltururlar erdi, balki o’zlarni musharraf qilurlar erdi. Bu faqiri haqir bu so’nggi jamoat zumrasida Xiyobon boshida ko’rgan zamonida muxtasar bitilgan risola sabog’iga mumtoz bo’dim¹ ” . Bu keltirilgan malumotlarga asoslangan olimlarimiz bu jumlalardan kelib chiqqan holda ularning uchrashuvlarini 1458-1459 yillar deb ko’rsatadilar. Buborada Izzat Sulton o’zining “Navoiyning qalb daftari” asarida e’tirof etgan o’rinlarni keltirsak. “Abusaid zamonida Jomiy (podshoh saroyi va siyosiy hayotidan uzoq turish niyatida bo’lsa kerak)Hirotning tashqarisiga chiqib ketib , Sadiddin Koshg’ariy mozori boshida o’ziga turar joy qiladi. Mashxur olim va shoirga hurmat ko’rsatmoqchi bo’lganlar endi shu joyga keladilar. Navoiy ham Abdurahmon Jomiy bilan shu vaqtda va shu joyda uchrashadi va butun umr uning sodiq

¹ А.Навоий “Хамсагул мутахаййирин”-Т-15 том, 5-б.

shogirdi, do'sti va hamkori bo'lib qoladi"² . Bu borada olimning fikrlari Navoiyning yuqoridagi jumllariga asoslangani ko'rinadi. Bunday fikrni yana bir olim Nazar Rajabov ham o'zining "Uztozu shogird "Xamsa " ijodkorlari" o'quv qo'llanmasida aytib o'tadi; "Abdurahmon Jomiyning Alisher Navoiy bilan birinchi marta qachon tanishib, uchrashganligi aniq emas. Lekin o'sha paytda Alisher Navoiy 17-18- yoshlar chamasidagi navqiron yigit edi. U paytda Jomiy 44 yoshda bo'lgan . Demak, ikki ulug' adibning dastlabki aloqalarini bog'langan davrini 1458-1459 yillar deb belgilashga to'g'ri keladi"³. Yana bir olim Amonullo Valixonov ham o'zining "G'azal nafosati" ilmiy asarida bu fikrlarni takidlab , ularning ilk uchrashuvlarini 1460 yillarda deb biladi. Ko'rib turganimizdek bu borada bir xildagi fikrga kelish mushkulroq. Har uchala olimning ham bunday fikrga kelishlarida Abusaid Mirzoning Hirot taxtini egallagan davrga va Jomiyning shu davrlarda Hirot shahrining tashqarisiga chiqib yashagan yillariga etibor qilganliklarini anglash mumkin. Ammo, Navoiy ayni shu zamonda "muxtasar bitilgan risola sabog'iga mumtoz bo'lgani"ni takidlab ko'rsatmaydi. Chunki, Navoiy Abusaid Mirzo zamonida juda kam vaqtini Hirotida o'tkazgan.

Navoiy hayot faolyatiga qaraydigan bo'lsak u Abulqosim Bobur davrida Mashhadda hizmat qilganligi va talim olganligi haqida Mirxondning "Ravzat us safo" asarida malumotlar keltiriladi. Mirxondning yozishicha Navoiy Abusaid Mirzo davrigacha va undan keyin ham Mashhadda yashagan va ta'lim olgan. 1464 yil Hirotga qaytgan Navoiyni bor budi, ota meros xovlisi ham musodara qilinadi. Chunki, Alisherning otasi Abusaid Mirzodan avval hokimlik qilgan Abulqosim Bobur saroyida hizmat qilgan sodiq amaldorlardan bo'lganligi, Navoiyning o'zi ham bu maskanda hizmatda bo'lgani Abusaid Mirzoga yoqmasligi bunga sabab edi. Bu haqda Mirxond o'z asarida Navoiy 1464 yilda Hirotga qaytgach , bir yil ham to'xtamay Samarqandga jo'naganligini yozadi. Demak, bu davrlarda Navoiy va Jomiy aloqalari, ustoz -shogird munosabatlari haqidagi fikrlar ko'zga tashlanmaydi.

² И.Султон "Навоийнинг калб дафтари"-Т-1968 й.-114-б.

³ N.Rajabov "Uztozu shogird "Xamsa"ijodkorlari" Samarqand-2001 y.71-b.

Bu haqda yana shuni ham aytish mumkinki, Navoiy Samarqand faoliyati davomida o'z yaqinlari bilan doimiy aloqada bo'lgan. Mir Said Hasan Ardasher, Pahlavon Muhammadlar bilan doimiy yozishmalar qilib turgan. Ammo, Jomiy borasida bunday ma'lumotlar uchramaydi. Baholanki, ko'ngil oynasi keng bo'lgan, mehrovafoni, insoniylikni butun umr kuylab o'tgan Navoiydek inson, Samarqand faoliyati jarayonida ustozini eslamasligi, e'tirof etmasligi mumkin emasdek ko'rinadi. Zero, Nazar Rajabovning bir o'rinda o'zlari takidlab o'tganlaridek Navoiy Jomiyning o'ziga ustoz deb bilgan, har bir vaziyatda uning maslahat, o'gitlariga tayangan. "Navoiy va Abdurahmon Jomiy do'stligi bir umirga zanjirdek mustahkam bog'lanib qoladi va faol davom etadi. Ular uzoqda, yani boshqaboshqa shaharlarda bo'lmaganlarida esa albatta, maktublar bilan xabarlashib turar edilar"⁴. Misol tariqasida ushbu fikrlarni Navoiyning Jomiy bilan bo'lgan quydagi yozishmalarida isbotini ko'rishimiz mumkin. Alisher Navoiyning "Xamsatul mutahayyirin" asarida keltirilishicha shoir Astrabod tomonida bo'lganida, ustozini Jomiyga ushbu ruboiyni yo'llaydi:

*Ey, bad dilam bishud digar jonibi yor
Jon ham bibaru bo poi u soz nisar
V-on gah qadre zi xoki poyash bardor
Bahri evazi joni mani dilshuda or.*

Navoiy bu ruboiyga o'z piridan javob oladi:

Jomiy; *Ey, bod chu omadi sarmanzili yor
Omad ba dilam zomadanat sabru qaror
Nomad ba qaror az in qadar jon zinhor
O'robibari ba on ki doni bisipar*

Bundan tashqari Jomiyning to'rt marta Samarqandda bo'lganligi adabiy manbalarda qayd etilgan. Ammo, na Navoiy va na Jomiy Samarqandda kechirgan hayotlari davomida bir-birlari haqida hech bir ma'lumot keltirmaganlar. Demak, Navoiy va Jomiy faoliyatlari 1469-1470 yillarda, Navoiy Samarqanddan qaytgach

⁴ N.Rajabov "Ustozu shogird "Xamsa" ijodkorlari" Samarqand-2001 y.71-b.

Hirotda, Husayn Boyqaro saroyidagi adabiy muhitda yuzaga kelgan deyish tarixiy haqiqatga birmuncha yaqin deyishimiz mumkin. Chunki, Abusaid Mirzodan so'ng Husayn Boyqaro Hirotni 1469 yilda egallagan va yoshlikdagi do'sti bo'lgan Navoiyni Samarqanddan chaqirtirib saroy lavozimlaridan biriga tayinlaydi va musodara qilingan ota meros mol- mulkini qaytarib beradi.

Husayn Bayqaro Jomiyni ham yuksak darajada hurmat qiladi va o'ziga pir deb biladi. Ikkala allomaning hamkorligini yuzaga kelishida , albatta , Husayn Bayqaro saltanatining ahamiyati katta bo'lgan deyishimiz mumkin.

II.I. Navoiy va Jomiy aloqalari va ijodiy hamkorligi.

Alisher Navoiy avvalida Abdurahmon Jomiyni shoir, donishmand, olim sifatida ustoz deb bilgan bo'lsa, keyinchalik esa bu hazratning rahnamoligida Naqshbandiya tariqatini rasmiy tarzda qabul qilib , Abdurahmon Jomiyni ham ustoz, ham pir sifatida ezozlaydi.⁵

Navoiy 1476-1477 yillarda Abdurahmon Jomiyni pir deb taniydi.⁶ Bu haqda Oybek o'zining "Tanlangan asarlar" to'plamida akademik V.V.Bartoldning Navoiy haqida uning 1477 yilda Jomiy tomonidan Naqshbandiya tariqatiga kirgizilganligini etirof etgan o'rinlarni qayt etib o'tadi.

Navoiy bu borada o'zining "Xamsatul mutahayyirin" asarida shunday jumalarni keltiradi: "Ul vaqtdakim, faqir alar hizmatida sufiya rumuz va ishorati va alfoz va iborati istilohin o'tkarur erdim, hazrati qudbus- solikin shayx Faxriddin Iroqiyning "Lamaoti" orzusi xayolg'a ko'p evrulur erdi. Bir kun taqrib bila bu manini izhor qildim. Alar dedilarkim: "Tariqat mashoyixining forsiy kutub va rasoili oz mutolaa qilibdur, ammo chun xavosing bor andoq bo'lsun" . Bu buyuk ikki qalb, ikki ulkan istedodni uchrashtirgan bir- biriga yaqinlashtirgan nuqta esa albatta Husayin Bayqaro saltanatida vujudga kelgan adabiy muhitdir.

Ikki buyuk siymo – Navoiy va Jomiy mamlakat hayotidagi iqtisodiy, siyosiy , milliy va turli jabhalarida o'zaro hamkor va hamfikir bo'lganlar. Bu ikki buyuk siymo orasidagi do'stlik bir umrga ilmiy , siyosiy – ijodiy hamkorliklardan

⁵ B. Valixojayev "Mumtoz siymolar" T-2002 y.-30-b

6.N.Rajabov "Ustozu shogird "Xamsa" ijodkorlari" Samarqand-2001 y.72-b.

iborat bo'lib ,u o'zbek va fors- tojik xalqlari orasidagi qadimiy do'stlikning o'sha davirdagi quyoshdek yorqin timsoli sifatida juda katta ijtimoiy mano kasb qilgan edi.

Navoiy va Jomiyning o'zaro hamkorliklari to'g'risida ijodda ham hayotiy faolyat jarayonida ham bir- birlariga suyanch va ayni paytda ikki xalq adabiyot xazinasiga durlar bo'lib qo'shiluvchi asarlarning yozilishiga sabab bo'lgan, do'stlik uztos- shogirdlik pir va murshidlik ananasining eng go'zal ko'rinishini kasb etgan deyish mumkin. Bu boradagi malumotlarni Navoiy o'zining "Xamsa" dostonlarida, nasriy asarlarida va eng ko'p qayd etilgan o'rinlar " Xamsatul mutahayyirin" asarida uchraydi.

Ikki buyuk qalbning ijodiy hamkorliklarini nisbiy ravishda ikkiga bo'lib o'rganish mumkin. Birinchisini Navoiy tasiri va maslahatlari ostida yozilgan Jomiy asarlari desak, keyigisi Jomiyning tasirida yozilgan Navoiy asarlaridir . Bu haqda aynan shunday holatda yozilgan asarlariga bir- bir to'xtalib o'tish lozim.

Bu haqda Navoiy o'zining " Xamsat ul- mutahayyirn" asarida " Alar bila bu faqir orasida mastkim, faqir javob bitibmen yo aks ".- deya Jomiy va o'z asarlarining yuzaga kelish sabablarini keltiradi.

Bizga malumki turkiy xalqlar adabiyotida Navoiygacha devon tartib berish va unga nom qo'yib nomlash namunasi ko'zga tashlanmaydi. Navoiy muxlislari tuzgan "Ilk devon" dan tashqari (Bu devonni tadqiq qilgan olim H.Sulaymonov uni shartli ravishda shunday nomlagan) g'azal va shariyati to'rt devonga jam bo'lib alohida nomlar bilan nomlangan. Navoiy bu devonni tuzish va jamlashni Jomiy maslahati bilan amalga oshiradi. Bu haqda Navoiy Jomiyning o'ziga bergan maslahatlarini shunday yozadi; " Chun mutaaddid bo'lubtur sen dog'i har birisini bir ism bila mumtoz qil va har qaysisini bir laqab bila jilvasoz etgil". Alar amrining itoati chun vojib erdi- faqir dog'i avvalg'i devong'akim tufuliyatda rangin nazmning g'arobati bor-" G'aroib us-sig'ar " ot qo'ydim va ikkinchi devonkim , shabob ayomidakim , maoniy nodiralari nazm silkiga kiribtur-" Navodir ush- shabob " laqab berdim , uchinchi devonkim, umr avositida voqe bo'lg'an bade mukotdur -" Badoyi ul-vasat"qa mavsum bo'ldi va to'rtinchi devon kim, shayxuxat sindidag'i foydalardur -"Favoyid ul- kibar" g'a ittisom topdi.

Umid ulkim, sag'iri kabir, shayxu shobning xotiralarig'a dilparir va ko'ng'illarig'a noguzir bo'lg'ay"- deya keltiradi. Bundan ko'rish mumkinki Jomiy Navoiy sherlarini bir bog'ga aylanishida, gullab-yashnashida bir bogbon vazifasini o'tagan.

Navoiyning ko'plab asarlarini yuzaga kelishida Jomiy ijodiyotining o'rni beqiyos bo'lgan bo'lsa, o'z navbatida Jomiy ijodining rivojida Navoiy ham salmoqli o'rin egallaydi. Jumladan, Jomiyning "Nafohat ul-uns" asarining yuzaga kelishi tarixi haqida Navoiy shunday yozadi; " Xayoling'a evrulur erdikim hazrati muqarrabi boriy Xoja Abdulloh Ansoriy ashobi tariqat va arbobi haqiqat zikridakim, iborat sufiya mashoyixidin bo'lg'ay- kitobe bitibdurlar va ani besh tabaqa qilibdurlarkim , ani " Tabaqoti mashoyixi sufiya" derlarkim , borchasi yuz kishining zikri bo'lg'ay va alardin so'ngra shayx Farididdin Attordag'i bir nav kitob bitibdurlarkim "Tazkiratul avliyo" g'a mashxurdur va hazrati Shayx Abu Abdurahmon Sulloniydag'i bu azizlar zikrida bitibdurlarkim "Tabaqoti Sulloniy" derlar, ammo ulcha o'zlaridin burung'i zamondag'i mashoyixdur borchasining zikrin qilmaydurlar va o'z muosirlarining ko'pini ham va o'zlarin ham bitmaydurlar. Va o'zlaridin to'rt- besh yuz yil mobaynida zahir qilg'on mashoyixi izom va avliyoyi kirom zikri xud ul kitubda va yo'qdir. Agarchi bazining maqomatin tilasa topsa bo'lg'ay, ammo oz va hech kim bu mazkur bo'lg'on buzrugvorlarni bir kitobda jam qilmaydurkim, zamon ahlig'a nafi kulloyandin yetishgay, va mumkindurkim , falak sayri iztirobidin va zamon havodisi inqilobidin bu farxunda ahvol va sifotlarikim , maqsud oforinishdin alarning sharif buyud laridur –oradin chiqqay " deya xavotirga berilganini va bu asarlarni kamchiliklarini to'ldirib qayta ishlash kerakligi Navoiyning xayolini band qiladi. Ammo bu ishni kim bajara oladi; "Oyo , zamon akobiridin ham bo'lg'aykim , bu sharif amrg'a murtakib bo'la olg'ay –deb ko'ngling'a kechurur erdim va sabr va taqsim bila o'z qoshimda hazrati Mahdumg'a qaror berur erdim, ammo gustohliq qila olmas erdim. Bir kunxayolg'a keldikim , umrg'a etimod yo'qdur , bo'lmag'aykim, bu orzuni gorga eltgaysen, avlo uldurkim , alarg'a arz qilg'aysen. Emdikim , mahal topib , bu mazkur bo'lg'on muddaoni arz qildim-g'arib hol dast berdikim , alarning ham muborak xotirlarig'a biayniki ushbu nav o'tar ermish,

ammo bazi mavone sababidin tavif va taviqqa qolur ermish. Bore alar bu iltimosdin xushhol bo'lib, qabul qilib, mashoyix holati sharhida akobir kutubin jam qilib, bu xatir amr va azm shug'lig'a mashg'ul bo'ldilar va har juzvkim , bitilur erdi- iltifot qilib , faqirg'a berurlar erdi. Oz fursatda "Nafohot ul-uns" kitobi tugandi va ul sohib davlat sayidin bu buzruqvorlar ismi olam sahifasida qoldi". Keyinchalik bu asarni Navoiy turkiy tilga tarjima qilib, turkiy xalqlardan mashhur bo'lgan mashoyixlardan ham keltiradi va ular sonini 755 taga yetkazadi. Shu tariqa bu asardan Navoiy ijodi salohiyati natijasida bugungu kunda turkiy xalqlar ham bahra olayotgangan "Nasoyim ul- muhabbat" asari yuzaga keldi.

Navoiyning yana bir asarining yozilish sababi haqida: Navoiy o'zining "Majolisun nafoyis" asarini yozishga kirishgan vaqtlarda ustoz Jomiy "Arbain hadis" asarini tarjima qiladi va buni o'qishga Navoiyga beradi. Asarni o'qib chiqib Navoiy bu asardan juda xursand bo'lganidan bu asarni turkiy tilda ham yozish niyati paydo bo'ladi; "Xamul "Arbain" g'a turkicha til bila tarjima orzusi ko'ngilg'a tushdi. Alardin ruhsad sharefig'a musharraf bo'lg'ondin so'ng hamul kum ul gavharlar alarning qulog'iga yetdi. Shavqat va marhamat yuzidin duoyi xayr bila tahsinlar qildilar va xutbasining avvalgi bayti budurkim

Bayt: *Hamd angakim kalomi xayr maol*

Qildi elga rasulidin irsol , deya o'zining "Arbain" asarining yozilish sababini keltiradi.

Jomiyning yana bir asari "Lujjatul- asror" bo'lib, bu asarning yuzaga kelishida ham bevosita Navoiy sabab bo'lgan deyish mumkin. Bu haqda Navoiy "Xamsatul mutahayyirin" asarida shunday eslaydi; "Bir kun ul Xazrat hizmatida erdim va har nav nazmdin so'z o'tar erdi. So'z asnosida Mir Xusravning "Daryoyi abror" otlig' qasidasi mazkur bo'ldi. Bu faqir go'yo aning tarifida mubolag'a qildim va muhim(haqli) erdim. Nevchunkim Mir Xusravdek kishidin mundoq mashhurdurkim , demish bo'lg'aykim. Agar afloh havodisi va ro'zgor navoibidin mening borcha nazmim zamona sahifasidin mavh bo'lsa va bu qasidam qolsa menga basdur, nevchunkim , har kishi ani o'qisa bilurkim, nazm mulkida mening tasarruf va iqtidorim ne martabada ekandur". Ammo necha dog'i mundoq bo'lsa , bu faqirdin ul Hazrat majlislarida tarifda ifrot (ortiq darajada tariflash) munosib

ermas erdi. Ul Hazrat hech narsa demadilar, to majlis tarqadi”⁷. Navoiy majlis tugaguncha Jomiyning sukutda qolganligini boshqacha tushunadi. Bu bilan u ustozining qalbiga ozor yetkazib qo’ydim degan xulosaga keladi. Navoiyning ustoziga bo’lgan hurmati shunchalik yuksak bo’lganki, ustozining ijodi oldida boshqa bir insonning ijodini bo’rtirib tariflaganligidan hijolat bo’ladi. Go’yo, ustozimdan uni yuqori qo’ygandek bo’ldim deb o’ylaydi. Lekin Jomiy boshqa hayolda edi.

Shu orada Husayin Bayqaro Marv qishlog’iga jo’naydi. Necha kundan keyin Navoiyni ham chaqirtiradi. Navoiy Jomiydan ijozat so’rash uchun yonlariga boradi. Ruhsat bergandan so’ng, duo qilib uning qo’liga qo’lyozma bir asarini tutqazadi; “Olib ochdim ersa, “Daryoyi abror” javobi “Lujjat ul-asror” erdiki, homul kunlarda aytib erdilar. Har kishi o’qisa bilurki “Daryoyi abror” din yakdastroq va ranginroq”. Navoiy qulluq qilib, otlanib manziliga jo’naydi. Qiziqish bilan qasidani yo’lda, ot ustida o’qib chiqadi. Uning matlasi shunday boshlanadi;

*Kunguri ayvoni shah k-az kohl Kayvon bardar ast,
Rahnaho, don, k-ash ba devoriy hisori din dar ast.*

Manosi; Podshoh saroyi ko’ngurasi yuksak bo’lsa-da, bilgilki, undan din qo’rg’oninig devorlariga rahna bordur. Bu jumladan behihoya tasirlangan Navoiy ushbu jumlaning yozadi;

*Otashin lala ki toji xusravonro zavar ast,
Aygare bahri xayoli xom puxtan dar sar ast.*

Manosi: Podshohlar tojini bezab turuvchi o’tday lal, boshlaridagi xom xayollarini pishiruvchi laxcha cho’g’dir. Navoiy manzilga yetgach bu baytni bir bekdan Jomiy huzuriga jo’natadi. “Ul hazrat xizmatlarig’a yuborildikim, agar tugaturg’a loyiq bo’lsa, mashg’ulliq qilayin, yo’ ersa xayr.” Jomiy bu baytni o’qib ko’rgach tarif-tavsiflar bilan maqtab „albatta tugatsin” deya javob jo’natadi. Navoiy bu qasidani Jomiy nomiga bag’ishlab Marvdan jo’natadi. Shu tariqa Navoiy ijodida Jomiy tasirida “Tuhfat ul-afgor” qasidasi yuzaga keladi. Bu haqda Jomiy ham o’zining “Bahoriston” asarida Navoiyning bu asari haqida shunday yozadi: “

⁷ А.Навоий “Хамсагул мутахаййирин” МАТ-15-Том.

Forsiy she'rlari orasida Amir Xusrav Dehlaviyning “ Yaxshilar daryosi” qasidasiga javob tariqasida bitilgan qasidasi bor. Unda ajib mazmun va nozik xayolatga ega baytlar juda ko'p”⁸. Lekin bizga malumki bu qasida Jomiy aytganidek Amir Xusrav Dehlaviyning “ Yaxshilar daryosi” qasidasiga javob tarzida ko'rinsada, aynan Jomiy qasidasi asosida yuzaga kelgan bo'lib buni Navoiy o'z asarida qayd etadi.

Navoiy va Jomiy nafaqat ijodda, balki ijtimoiy hayotda ham do'st-u yaqin bo'lganlar, bir-birlarini doim ma'naviy-ruhiy qo'llab turganlar. Saroy muhitidan bezgan Navoi saroy fitnalaridan charchaydi va saroydan ketish haqida Jomiyga aytadi: “Ham ushbu tarixda erdikim, faqir sipohlikdin mutanaffir bo'lub, manosibni tark qilib, mulozimatni o'ksutub erdim. Alar tanbeh va nasihat yuzidin so'rdilarkim

_ Bu nav amre masmu bo'ldi, bu jihat na erdi erkin?

_ Inson jinsi suhbat va ixtilotidin malub bo'lib erdim, bu ishg'a ul bois bo'ldi
Alar dedilarkim

_ Inson kimni hayol qilib erding?, bizg'a dag'i ko'rguz.

Qo'rqib erdimkim, man qilg'aylar. Bu javobdin bildimkim, muborak xotirlarig'a bu ish xeyli noxush kelmagan ermish.Xotirim jam bo'ldi.”

Jomiy Navoiyga mansabdorlik faolyati davomida doim xalqqa g'amxo'rlik qilishini maslahat beradi. Jomiy Navoiyning nafaqat ijodida, balki shaxsiy hayotida ham yaqini, bir mehribon ota sifatidagi inson bo'lgan. Shu sababli Navoiy har bir ishni maqsad qilar ekan, dastlab Jomiyning duolarini olishni o'zining burchi, vazifasi deb bilgan. Bu Navoiyning Jomiyga bo'lgan yuksak hurmati deyish mumkin. Bu buyuk ijodiy hamkorlik o'z davri uchun ham va yillar o'tib bugungi davr uchun ham qimmatli bo'lgan nodir asarlarning yuzaga kelishida asosiy vosita bo'lgan degan xulosaga kelamiz.

II.2. Navoiy badiiy ijodiyotida Jomiy shaxsiyati va faolyati.

⁸ Жомий “ Бахористон” Т.-Янги аср авлоди.2007 й. 89-б.

Navoiy Abdurahmon Jomiy bilan, Amonullo Valixonov aytganlaridek “Non do’st emas, balki jondo’st” edilar.⁹ Navoiy Jomiyning deyarlik har bir asarida alohida mehr va alohida hurmat bilan tilga olib o’tadi. Bunday ta’riflarni ham ikki guruhga ajratgan holda tasniflash mumkin:

Birinchisi, Jomiy hayotlik davrida yozilgan Navoiy asarlaridagi tariflar, bulardan dastlabkilariga “Xamsa” dostonlarini („Xamsa” tarkibidagi barcha dostonlarda Jomiy haqida alohida boblar ajratilgan .) kiritish mumkin. “Majolisun nafa’is” asari ham Jomiy hayotligida yozilgan bo’lib Navoiy bu asarida ham bu borada alohida to’xtalgan.

Jomiy vafotidan keyin yozilgan asarlardan “Xamsatul mutahayyirin”, “Nasoyim ul muhabbat”, “Muhokamatul lug’atayin”, “Mahbub ul -qulub”, kabi asarlarida etirof etgan o’rinlar mavjud.

“Xamsa” dostonlarida. Navoiy “Hayrat ul- abror” dostonida Abdurahmon Jomiy ta’rifida alohida bob keltiradi va shunday ta’riflar bilan boshlaydi: “Safu jominingsofi oshomi mavlono Nuriddin Abdurahmoni Jomiy madda zillahil- oliy vasfikim, vasfg’a sig’mas va tarifikim, tarifg’a rost kelmas va ul hazrat iltifotining quyoshi bu xoksori tiyra ro’zgor holiga partav solg’onining izhori va ul quyosh tarbiyatidin bu tufroqqa zohir qilgan gulu nasrin, balki ginogun rayohin osori va “Tuhfatul-ahror” tuhafi mutolaasidin mahzun ko’ngultarabi va “Hayratul- abror” laoli va javohirin nazm rishtasig’a tortmoqning sababi”. Navoiy juda ko’pchilik hollarda yozgan asarlarini Jomiyning ijodidan tasirlangan holda ijod qilgan deyish mumkin. Dostonda Jomiyning shaxsiga xos bo’lgan o’rinlar alohida, uni Navoiy “Qutbi tariqat- asrori haqiqat” deya baholaydi.

Jilvagahi gulshani charhi bari,

Obxo’ri jashmai aynul- yaqin.

Uning jilva qilib qarab turadigan joyi yuksak osmon gulshani; suv ichadigan chashmasi esa aniqlik manbaidir.

Qasri kalomi chiqib andoq baland

Kim anga gardunsola olmay kamand

⁹ А.Валихонов “Газал нафосати” Т-1968 й.49-б.

U qurgan soʻz qasri shu qadar balandga koʻtarilganki, unga hatto osmon ham sirtmoq sola olmaydi deya Jomiyni yuksak darajada baholaydi.

Navoiy “Xamsatul mutahayyirin” asarida bu dostonning yozilishida ham Jomiyning “Tuhfat ul- ahror” asaridan tasirlanganini va bunday asarni turkiy tilda ham yaratish ishtiyoqi paydo boʻlganini aytib oʻtgan. Dostonda ham buni takidlaydi;

Kulgu bila qildi ishorat manga

“Tuhfa” bila berdi bashorat manga

Kim “Olibon boshdin-ayog’ig’a boq,

Qil nazar avroqig’a boshdin-ayoq”

Olog’a jon naqdini sochdim ravon

Oldimu o’pdim, dog’i ochdim ravon

Boshdin- ayoq gavhari shahvor edi

Qaysi guhar, “Tuhfatul-ahror’ edi.

Chun o’qimoq zamzamasi bo’ldi bas

Kunglim aro dag’-dag’a soldi havas

Forsi el topti chu xursandliq

Turk dog’i topsa barumandliq

Dostonda Navoiy Jomiyni buyuk xamsanavislar Nizomiy va Dehlaviylar qatorida ulugʻlaydi, bu shoirlarni hushboʻy mushkka, oʻzini esa terga qiyoslaydi. Ularni qimmatbaho lal deb, oʻzini oddiy tosh, yana oʻzini qaro tuproq deb bilsa, ularni oʻt, suv, havo deb biladi, ular gul, bu esa bir oʻtin desada, oʻtinning ham bozori bor, yani bu asarni ham oʻuvchilar topiladi degan umidlarini aytib oʻtadi.

Yana bobning oxiridagi bir baytda keltiriladiki, Navoiy bu bilan oʻzini past tutadi. Navoiy uchun martabaning ahamiyati yoʻqdek , itdek qadsiz boʻlsada buyuklar safida boʻlishni bir baxt deb biladi;

It kibi chun pastlig'im chog'ladim

O'zni buyuklar ipig'a bog'ladim.

Bu baytda Navoiy uch vafodor do'stning podshoh navkarlaridan qochib g'orga yashiringani va ular bilan birga bir vafodor it ham bo'lganligiga, ular bilan birga shu itning ham nomi g'orga yozilib qoldirilganligiga ishora qiladi.

“Farhod va shirin” dostonida Navoiy Jomiyni yuzta filga teng keladigan shijoat egasi deb biladi;

Iki pil o'lsa Xusrav yo Nizomiy,

Erur yuz pil chog'li pil Jomiy.

Jomiyni daryoga, so'zini esa durga qiyoslaydi.

Kelib daryo nasab, gavhar hasabliq,

Ichida necha boqsang bulajabliq,

Qalam uning qo'lida shunchalik turfa ishlar qiladiki, baholangki u daryo bo'yida o'sgan oddiy qamishdir;

Qalam bahri kafida turfa ishdur,

Magar daryo aro butgan qamishdur.

Qalan oddiy bo'lsada uchidan gavharlar sochadi, u shunday shirin so'zlaydiki, go'yo ichida shakar do'koni bor;

Uchidin ham guhar olamg'a sochib,

Ichidin ham shakar do'koni ochib.

U Jomiyni bu dostonida dunyoni ko'satuvchi piri ekanligini, agar Jomiy yani piri may ichmoqni (ijodni nazarda tutmoqda) buyursa, piyola dunyodek bo'sa ham ijishini aytadi.

Keturgil, soqiy, ul jomi kiromiy

Ki, tutsun rindlar sarxayli Jomiy.

Chu piri dayr may qildi havola,

Icharmen gar erur gardun piyola.

“Sab'ai sayyor” dostonida Jomiyni fazl komi, ilm daryosi deya ulug'laydi. Sirlarni kashf etish uning tabiatida mavjud, buni unga tangri ato etgan. Riyoziyotda fikri

osmonday tiniq bo'lib, u falak ekinzorini bahramand etadi deya uning asarlarini keltiradi, har bir asariga qisqacha mazmunini sharx etib, ahamyatliligini ko'rsatadi. "Saddiy Iskandariy" dostonida esa xotima qismida Jomiyni tushida ko'rganligi va xamsanavis ijodkorlar orasidan chiqib Navoiyni ular yoniga yetaklab borganligini aytadi. Bu shunchaki keltirilmagan bo'lib "Xamsa" yozishda Jomiyning yo'l boshlovchi bo'lganligiga Navoiyning ishorasi deb tushunish mumkin.

"Nasoyim ul- muhabbat" asarida. Navoiyning bu asari yuqorida aytib o'tganimizdek Navoiyning maslahati bilan Jomiy tomonidanyozilgan bo'lib, Navoiyning tarjimai asosida Turkiy tilda yanada mukammalroq va to'liqroq holda yuzaga kelgan. Bu asarda shoir turkiy xalqlardan bo'lgan shayx-mashoyixlarni ham asarga kiritadi. Asarda 755 ta mashoyixlar haqida malumot bo'lib 735 o'rinda Jomiy xususida so'z yuritilgan. Bu asarda Jomiy hayotining turli jabhalari, insoniy xislatlari , ijodi va asarlari , ustozlari haqida qisqa va aniq malumotlar berib o'tiladi. Jomiy shaxsiyatini yuksak baholaydi. Navoiyning etirof etishicha uning vasfini yozishda qalam tili lol bo'lib, yoza olmaydi, til uslubi esa buni ifodalashdan ojiz. Uning tarifi yillar davomida ham aytilishga haqlidir. Vasfini aytgan bilan tugamaydi va son-sanog'i yo'qdir.

Asr fuzalolari va zamon ulamolari unga shogird bo'lish sharafiga muyassar bo'lishdan xursand edilar. Qancha kishilar uning kamoli siyrati haqida risola va kitoblar bitgan va tavsiflar berganligini Navoiyning o'zi ham Jomiy haqida "Xamsatul mutahayyirin" risolasini yozganini bu asarda aytib o'tadi. "Bu zaif dag'i ham bu bobda "Xamsatul mutahayyirin" risolasi bitibmen. Anda filjumla gustoxlig' yuzidin alar zikri bila qalamni gavharnisor etibmen. Turk ulisida irodat ahli va ixlos xayli ul parishon avroqdin va parokanda ajzodin ilikka olsalar va ko'z solsalar biror nima bila olurlar va shuur hosil qila olurlar". Bu asarda Jomiyning ustozlari haqida ham to'xtab o'tilgan. Devonlarini va risolalarini nomma-nom sanab o'tgan.

"Majolis un-nafois" asarida. Navoiyning bu asari turkiy tilda yozilgan ilk tazkira bo'lib 459 ta shoir haqida malumot beradi. "Majolis un- nafois" asari 8 ta majlisdan iborat bo'lib Jomiy xususida uchinchi majlisdan etirof etiladi. Bu asar Jomiyning hayotligida yozilgan bo'lib Navoiy uning umrini uzoq qilishini

tangridan so'raydi. Uni bu majlisning ras va raisi, bu guruhning muqtadosi va peshvosi ekanligini aytadi. "Chun alar latoyifi nazmi andin ko'proqdurkim, hojat bo'lg'aykim, bazi bitilgay, yo elga malum bo'lsin deb birori sabt etilgaykim, kutublarining otin bitilsa, bu avroqdin oshar va musannafotlari durlari zikrin qililsa, gardun bahri andin toshar, lojaram chun bu mani bililur"- deya asarlarining salmog'i kengligi haqida, mazmun durligi haqida aytilganda esa dunyoga sig'masligini aytadi va ushbu ruboiyni keltiradi;

Yo rab, bu maoniy durining ummoni,

Bu donish-u fazl gavharining koni

Kim, aylading oni olam ahli joni,

Olam eliga bu jonni tut arzoniy.

Navoiy umuman olib qaraganda deyarlik barcha asarlarida Jomiy shaxs sifatidagi fazilatlarini yuqori o'ringa qo'yadi. Asarlari haqida esa umumiy fikrlarni berib o'tadi. Agar yuqoridagi o'rinlardagi Jomiyga va uning asarlariga berilgan Navoiyning bahosini kuzatsak "Xamsa" dostonlarida berilgan o'rinlarda Jomiy ijodiga va iqtidoriga berilgan baho badiiy uslubda ifodalangan umumiy qarashlar yetakchilik qiladi. "Nasoim ul- muhabbat", "Majolis un-nafois" asarlarida esa bunday baho qisqalik va aniqlik asosidagi ifodalarda berilgan bo'lib, har ikkala uslubda ham ifodalar tarixiy va badiiy ma'no kasb etadi.

II. 3. "Mahbub ul- qulub" asarida Jomiy martabasi.

Prizidentimiz shoirlar haqida to'xtalar ekanlar o'zlarining "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asarida "Shoirlar- inson ruhiyatining muhandislaridir"¹⁰- deya ta'riflaydilar. Ruhiyat muhandislari- inson ruhini, dunyoqarashlarini shakllantiradilar. Navoiy ham shoirlar haqida o'zining "Mahbub ul-qulub" asarida alohida to'xtaladi.

"Mahbub ul- qulub" asari Navoiy hayotining so'ngi yillarida yozilgan asari bo'lib, adibning olam va odam haqidagi eng so'ngi xulosalari deyishimiz mumkin. Navoiy "Mahbub ul-qulub" doatonida shoirlar borasida to'xtalar ekan, ularning har birini ijodining mazmun- ma'nosiga qarab turkumlaydi.

¹⁰ I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" T- O'zbekiston, 2008 y.

Bu turkumlarni yozuvchi asarda uch faslga bo'lgan holda yozadi. Navoiy bu asarida ustoz Jomiyni ikki faslda etirof etgan bo'lib, birinchi faslda "nazm gulistonning xush nag'ma qushi" sifatida uning she'rlarida majoziy ishqni haqiqatga vosita qiluvchilik mohiyatidan kelib chiqsa, yana birida pok oshiqlar boshlig'i, majoz va haqiqiy ishq egasi deb biladi. Navoiy bu asarida umuman shoirlarni "nazm gulistonning sayroqi qushlari", yani shoirlarni uch guruhga ajratadi."Ular bir necha guruhdir. Birinchi guruh marifati ilohiy xazinasining naqdinalari bilan boyigan va xalq tarifi ehtiyoj sezmagandir. Ishlari manilar xazinasidan javhar termoq va u javharni el yaxshiligi uchun nazm ipiga tortmoq. Nazmlarining ifodasi g'oyat qutlug' va benihoyat yoqimli va ulug'.

Yana bir guruhdurkim haqiqat sirlariga majoz yo'lini aralashtiribdirilar va so'zlarini bu uslubda bog'labdirilar

Yana bir qanchalari ham bordirki majoz yo'li ularning sherida g'alaba qozongan va ular bu ravishga ko'proq rag'batlanganlar"deya shoirlarni uch guruhga ajratadi va ijodlarining asosiy mazmun qamroviga qarab bazi shoirni guruhlaydi.

Jomiy borasida alohida to'xtalib, majoz va haqiqat yo'lida kamolga erishgan va ilmi har ikki yo'lda yetilgan va to'lishgan, shoirlarning yetugi va ilg'or rahbari sifatida biladi. Shoir Jomiy xususida bunday fikrda ekan avvalo, majoz va haqiqat yo'lida kamolga erishishda ishqni majoz- olam va odamga bo'lgan ishqni, haqiqat-Ollohga bo'lgan, yaratganga bo'lgan ishqni nazarda tutadi. Asardagi ikkinchi faslda berilgan "Ishq to'g'risida" tarifida ham shundan kelib chiqqan holda uchga bo'ladi.

Avom ishq, xos ishq va siddiq ishq. Navoiy Jomiyni shunday bir ishq egasi deb biladiki, "dunyo va oxiratni bir oh ila o'rtagan pok oshiqlar imomi va mulk malakutda soyirlar shayxul-islomi hazrati murshidiy mahdumiy nurul-millat vaddin Abdurahmon Jomiy dururkim agarchi alar vasfi nazmg'a nisbat berurdin yuqoriroqdur, ammo har sinf nazmda benazir erdilar va nechoki ta'riflari sherda mahoratdin tashqaridur va lekin har uslub sherda jahongir erdilar."

Navoiy murshid, Jomiy esa pir-u komil bo'lganlar. Ular "Naqshbandiya" tariqatining azosi bo'lib, tariqatning mashhur shiori "Dil bayore, dast bakor" ularning butun hayotining amaliy qoidasiga aylangan edi. Navoiy ijodiy

qarashlarida ham, Jomiy qarashlarida ham majoziy ishq, haqiqiy ishqqa olib boruvchi ko'prik vazifasida qaraladi. Haqiqiy ishq bir ulkan ,sirli qasr bo'lsa, majoz uning eshiklaridir. Majoziy ishq shoirlarimiz talqinida faqat bir oshiqning, o'zga bir go'zalga oshiqligi emas, u sanamning go'zalligida haqni idrok qilish, go'allikning yaratuvchisiga bo'lgan ishq , uning tajallisini majozda ko'rish "Aynul yaqin" , yani olam va odam ko'rishida Ollohni his qilish, unga bo'lgan muhabbatdir. Navoiyning ushbu bayti buni to'liq ifodalaydi;

Bayt: *Ashraqt min aksi shamsil-kasi anvorul-xudo,*
"Yor aksin mayda ko'r' deb chomdin chiqdi sado.

Majoz haqiqatga olib borar ekan oshiq bunda o'zligidan kechib o'zgalik tomon qadam tashlaydi . Har qanday nafsoniy hislatlarni, ehtiyojlarni yo'qota boradi. Navoiy bu asarida anashunday fikr-xulosalardan kelib chiqqan holda Jomiyda va uning asarlarida shunday sifatlarini ko'radi.

Navoiy "Lison ut-tayr" asarida yettita vodiylarni keltiradi. Ulardan dastlabkisi Talab vodiysi bo'lib, aslida talab vodiysiga eltuvchi, boshlovchi, undovchi majozdir. Jomiy Navoiy naznida mana shunday ishqning yo'lboshchisi va ishq egasi va bu ishqqa yetaklovchi pir edi. Bu fikrlar Navoiyning Jomiy she'riyatiga va shaxsiyatiga bo'lgan e'tiqodi deb baholash mumkin. Navoiyning o'zida ham hatto ilohga bo'lgan muhabbatning shakllanishida Jomiy va uning ilmiyoti majoz , yani vosita vazifasini bajaruvchi " Ilmul yaqin" darajasida edi. Shu bois Navoiy Jomiyini " Ko'ngillarning sevgani" dan biri deb asarida etirof etadi

III.Xulosa.

Abdurahmon Jomiy hayot faolyatini tadqiq qilishda Alisher Navoiy qarashlarining o'rganilishi har ikkala ijodkorning ijod xazinasining yangi- yangi qirralarini ochishda, ijod uslublarini o'rganishda muhim amaliy qo'llanmalarni beradi. Chunki shoir ijodkorning shaxsiy va ijtimoiy faolyatining o'rni doim adabiy faolyatdagi ijodiy jarayonda o'z o'rni va tasirini ko'rsatib turadi.

Ularning ,yani, Jomiy va Navoiyning o'zaro hamkorliklari o'sha davr uchun yuqori ahamiyatga ega bo'lganligini kuzatish mumkin. Ammo, bugungi kunga kelib ham bu hamkorlikning ma'naviy ahamiyati yuqorilasa yuqorilab bormoqdaki, aslo pasaygan emas. Chunki, bugungi kunda yosh avlodni , nafaqat yosh avlod,balki kattalarni ham tarbiyalashda, millatlar orabag'rikenglikni, xalqlar oro totuvlikni taminlashda ularning shaxsiy munosabatlari bir o'rnak vazifasini bajarsa - ijodiy faoliyatlaridagi hamkorliklari adabiyot olamini boyitishga hizmat qilmoqda. Ular hech qachon bir xalqni boshqa bir xalqdan , bir millatni boshqasidan ustun deb qaramaganlar .

Navoiy va Jomiyning bir-birlariga bo'lgan hurmat va e'tiqodini kuzatar ekanmiz ularning bir-birlariga bo'lgan muhabbatining naqadar baland bo'lganligini ko'ramiz. Bunday yuqori insoniy muhabbatni baholar ekan adabiyotshunos olim N.Komilov o'z asarida uni shunday talqin etadi: “ Agar, biz Navoiyning Jomiyga bag'ishlangan “ Xansatul mutahayyirin” asarini mutolaa qilsak, ular bir-birlarining suhbatiga hamisha intiq bo'lganlari, ikki-uch kun ko'rishmasalar, sog'inib qolishlari, bir-birlarini nafaqat farzand-u ota muhabbati, balki ixlosmand pir- murid muhabbati, yor-u birodarlik muhabbati bilan yo'qlab, qo'msab turganlarini ko'rish mumkin. Jomiy “ Yusuf va Zulayho” dostonining xotimasida Navoiyni tengi topilmas sadoqatli do'st, yori aziz deb ta'riflaydi. Ularning bir-birlariga yuborgan maktublari ham muhabbat so'zlari bilan to'liq ”. Bundan ko'rinadiki insoniylik, mehr va muhabbat millat tanlamaydi, tillarni farqlamaydi.

Ikki buyuk siymo- Navoiy va Jomiy mamlakat hayotidagi iqtisodiy, siyosiy, milliy va turli jabhalarda o'zaro hamkor va hamfikir bo'lganlar. Bu ikki buyuk siymo orasidagi do'stlik bir umrga ilmiy,ijodiy hamkorliklardan iborat

bo'lib, u o'zbek va fors- tojik xalqlari orasidagi qadimiy do'stlikning o'sha davrdagi quyoshdek yorqin timsoli sifatida juda katta ijtimoiy ma'no kasb qilgan edi. Bu mavzudagi ilmiy adabiyotlarni o'rganish mobaynida ikki qardosh xalqning , o'zbek va tojik millatining avvalgi asrlarda ham naqadar yaqin, bir tanning qon tomirlaridek bir-biriga ulanib ketganligini kuzatamiz. Bu xalqning til oilasi boshqa-boshqa bo'lsada , ko'ngil tili birdir. Bu boradagi fikrlarni yuqorida kuzatganimiz, Jomiy va Navoiy munosabatlari to'liq isbotlab bermoqda.

Bu allomalarning hayot faolyatini o'rganish har bir davrda, har bir adabiyotshunoslarni qiziqtirib kelgan. Ilmiy izlanishlarning olib borilganligi esa bu mavzuning birmuncha kengroq namoyon bo'lishiga sabab bo'ldi.

Navoiy o'z nigohida Jomiyning talqin etar ekan, agar etibor beradigan bo'lsak, uni asosan ijodkor sifatida emas, insoniy fazilatlar egasi, ma'naviy yetuk , barkamol shaxs sifatida baho berishi yuqoriroqdir. Navoiyning asarlaridagi fikrlar Jomiy haqida ma'lumot berish bilan birgalikda, Navoiyning uztoziga bo'lgan hamfikrligini ham namoyon qiladi. Navoiy Jomiyning ustoz sifatida juda qadrlaydi. O'z navbatida Jomiy ham Navoiyning qadrlaganligi , yozgan asarlarini dastlab Navoiyga ko'rsatishi, uning fikrlarini bilishga intilishi unga nisbatan yuqori ishonchda bo'lganligidan dalolat beradi. Navoiyning asarlarida madh etadi. Navoiyning o'zi ham bu haqda "Xamsatul mutahayyirin" asarining uchinchi bobi shu mavzu haqida ekanligini : " Kutub va rasoil bobidakim, alarning musannafotidur va bu faqir alarning ta'rifiga boisu, tasnifiga sabab bo'libmen va bu mani hamul kutubning ko'prog'ida zohirdur"- deya yozadi. Bu madhlarni o'z navbatida Navoiyga ham Jomiy tomonidan berilgan o'rinlar Jomiyning " Bahoriston" , "Xamsa" dostonidagi " Xirodnomayi Iskandariy" va yana bir qancha asarlarida ko'rish mumkin. Bunday buyuk qalb egalarning ijodlari o'lmas asarlarda abadiylikka muhrlangan bo'lib avloddan-avlodga o'tib boraveradilar. Do'stliklarining namunalarini esa ibrat maktabi vazifasini o'taydi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Siyosiy adabiyot:

I.A.Karimov “ Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch” -

T.:O'zbekiston,2008 y.

Asosiy adabiyotlar.

1. *Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик.*

T.15. “Xamsatul mutahayyirin” . - T.: Fan,

2. *M.: Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик.*

T. . “Xayrat ul-abror”. – T.: Fan,

3. *Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик.*

“Farhod va SHirin”. – T.: Fan,

4. *Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик*

“Layli va Majnun”. – T.: Fan,

5. *Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик*

“Sab'ai sayyor”. – T.: Fan

6. *Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик*

“Saddiy Iskandariy”. – T.: Fan,

7.*Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик*

“Mahbub ul- qulub”.

8. *Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик*

“Majolis un-nafois. – T.: Fan,

9. *Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик*

“Nasoyim ul-muhabbat”. – T.: Fan,

10. *Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик*

“Muhokamat ul-lug'atayin”. – T.: Fan,2000-y,16-tom,28-b.

Qo'shimcha adabiyotlar ro'yhati:

1. *Abdurahmon Jomiy "Bahoriston". T.: Yangiasravlodi, 2007y, 88-b.*
2. *Abduqodir Hayitmetov "Alisher Navoiyning adabiy tanqidiy qarashlari". – T.: O'ZFa, 1959-y, 65-b.*
3. *Amonullo Valixonov "G'azal nafosati". – T.: Adabiyot va san'at, 1985-y, 45-b.*
4. *Botirxon Valixo'jayev "Mumtoz siymolar". – T.: Xalq merosi, 2002-y, 33-b.*
5. *Botirxon Valixo'jayev "O'zbek adabiyoti tarixi". – T.: O'zbekiston, 1993-y, 112-b.*
6. *Izzat Sulton "Navoiyning qalb daftari". – T.: G'.G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1968-y, 113-b.*
7. *"Navoiyga armug'on". – T.: Xalq merosi, 2003-y, 6-b.*
8. *Najmiddin Komilov "Tasavvuf". – T.: Yozuvchi, 1996-y, 1-k, 54-b.*
9. *Nazar Rajabov "Ustozi-u shogird" "Xamsa" ijodkorlari". – S.: SamDU, 2001-y, 65-b.*
10. *Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek "Mukammal asarlar to'plami". – T.: Fan, 1979-y, 13-tom, 315-b.*